

ISLOM DUNYOSIDA AYOLLAR HUQUQLARI

Valiyev Lochin Azamatovich

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Tel: +998946227632

e-mail: valiyevl33@gmail.com

Abdumalikova Gulsanam Abduxalil qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Tel: +998946227632

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada islom dinida ayollar haqidagi tushunchalar, ularning huquq va erkinliklari, jamiyat hamda oiladagi o‘rni va vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, islom dini kirib kelishidan avvalgi davrda ayollarga nisbatan mavjud bo‘lgan kamsitish holatlari, ularning huquqlarining cheklanishi va zo‘ravonlik ko‘rinishlari yoritib beriladi. Maqolada islom ta‘limotining ushbu muammolarga munosabati, ayollar sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan tamoyillari ochib beriladi. Bundan tashqari, islom dinida nikoh masalasi, uning ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyati, oila barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni ham ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

***Kalit so‘zlar:** Ayol va erkak, nikoh masalalari, adolat va tenglik tamoyillari, din va oila, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, ta‘lim hamda meros huquqlari.*

ABSTRACT

This article analyzes the concepts of women in Islam, their rights and freedoms, their role and responsibilities in society and the family. It also highlights the discrimination against women, the restriction of their rights, and the manifestations of violence that existed before the advent of Islam. The article reveals the attitude of Islamic teachings to these problems, the principles aimed at protecting the honor and dignity of women. In addition, the issue of marriage in Islam, its social and spiritual significance, and its role in ensuring family stability are also scientifically analyzed.

***Keywords:** Women and men, issues of marriage, principles of justice and equality, religion and family, violence against women, education, and inheritance rights.*

KIRISH

Islom dinida har bir insonning jamiyatda o‘ziga xos o‘rni, sha‘ni va hurmati borligi alohida ta‘kidlanadi. Har bir shaxs, jinsidan qat‘i nazar, Alloh huzurida teng va qadrlidir. Bugungi zamonaviy jamiyatda ham inson huquqlari, erkinliklari va

tenglik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Islom ta'limotida ayol va erkakka nisbatan adolat va tenglik asosida munosabatda bo'lish, ularning huquqlarini himoya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Biroq islom dini kirib kelishidan avvalgi johiliyat davrida ayollarga nisbatan adolatsizlik va kamsitish holatlari keng tarqalgan edi. Ayollar ko'pincha ijtimoiy hayotdan chetlatilib, ularning huquqlari poymol etilgan. Ular meros olish huquqidan mahrum qilingan, ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan, hatto ayrim hollarda mulk sifatida qaralgan. Eng achinarli jihatlardan biri shundaki, qiz farzand dunyoga kelishi uyat yoki isnod deb hisoblanib, ba'zi oilalarda ularni tiriklayin ko'mish kabi vahshiyona odatlar ham mavjud bo'lgan.

Islom dini ana shunday noinsoniy va adolatsiz urf-odatlariga qat'iyon barham berdi. Qur'oni karim va hadislarda ayollarning sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlari himoya qilinib, ularga nisbatan mehr-oqibat, hurmat va adolat bilan munosabatda bo'lish buyurildi. Ayollarga meros olish, mulkka egalik qilish, nikohda o'z roziligini bildirish, ta'lim olish kabi huquqlar berildi. Shu orqali islom dini ayolning jamiyatdagi o'rnini tiklab, uni to'laqonli va hurmatga sazovor shaxs sifatida e'tirof etdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islom dini taraqqiy eta boshlagach, ayollarga bo'lgan e'tibor va munosabat tubdan o'zgardi. Ular jamiyatda munosib o'rin egallab, erkaklar bilan bir qatorda muayyan huquq va mas'uliyatlarga ega bo'ldilar. Muqaddas kitobimiz Qur'oni karimda ham ayollarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, hatto uning yirik suralaridan biri "Niso" ("Ayollar") deb nomlanadi. Shuningdek, Qur'oni karimning ko'plab sura va oyatlarida ayol, uning huquqlari, oiladagi o'rni va jamiyatdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Alloh taolo "Niso" surasida bunday marhamat qiladi: "Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig'i sifatida) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlarini ayrimlaridan (ba'zi jihatlarda) ustun qilgani va erkaklar o'z mol-mulklaridan sarf qilishlaridir..." (Niso surasi, 34-oyat). Ushbu oyatda oiladagi mas'uliyat va vazifalar taqsimoti bayon etilib, erkakning oila ta'minoti va himoyasi uchun javobgarligi alohida ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, mazkur oyat va boshqa manbalarda soliha ayolning fazilatlarini — iymonli, pokiza, oilasiga sadoqatli va mas'uliyatli bo'lishi qayd etiladi. Eng muhimi, islom ta'limotida ayollarga nisbatan zulm va nohaqlik qat'iyon man etilib, ularga mehr-oqibat, hurmat va adolat bilan munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlanadi. Demak, islom dini nafaqat ayollarning huquqlarini belgilab bergan,

balki ularni himoya qilish va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga ham xizmat qilgan.

Islom dini jamiyatni o‘zgartirdi ayol qizlarga ko‘plab imkoniyatlar berdi. Ularga nisbatan zo‘ravonliklar, ularni kamsitish, shuningdek ularning huquqlarini cheklash holatlari anchagina kamaydi. Islomda ayollarga berilgan huquqlarning yana bir muhim jihati ularning ta‘lim va ilm-fandagi ishtirokidir. Islom madaniyati va an‘analari ta‘lim va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi va Islomda ayollar ta‘lim olishda keng imkoniyatlar va huquqlarga ega. Bunday ayollarga 9-10-asrlarda yashagan Alisiya Al-Xannu yoki Fotima al-Fihriy kabi mashhur olim va faylasuflarni misol qilib keltirish mumkin. Alisiya Al-Xannu matematik va astronom bo‘lgan, shuningdek, 20-asr boshlarigacha islom olamida qo‘llanilgan kalendarni ishlab chiqqan. Fotima al-Fihriy hozirgacha musulmon olamidagi yetakchi ta‘lim muassasalaridan biri bo‘lgan Fez universitetining asoschisi edi. Bugungi zamonaviy dunyoda ham ko‘plab musulmon ayollar oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, siyosat, biznes, tibbiyot va huquq kabi turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular musulmon jamiyatlari va iqtisodlari rivojida muhim rol o‘ynaydi va ularning hayotning turli sohalariga qo‘shgan hissasini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Tadqiqotchilar Islomga ko‘ra ayollar XX asrgacha bo‘lgan ba‘zi G‘arb mamlakatlariga qaraganda ko‘proq huquqlarga ega ekanligini ta‘kidlaydilar. Masalan, fransuz qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquq layoqatini cheklash faqat 1965-yilda bekor qilingan. Garvard universitetining huquqshunos professori Noa Fildman, qayd etadiki: inglizlar barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi, o‘z qonunlarini musulmonlarga ham qo‘lladilar, maqsad esa bitta edi-ayolni islom qonunlari bergan huquqlaridan mahrum qilish. Buni gender tengligi yo‘lidagi rivojlanish deb atash mushkuldir¹.

Nikoh masalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, islomda ayolning nikoh huquqi, ya‘ni erga tegish va ajrashish (taloq) huquqi mavjud. Islom dini kirib kelishidan avval, qizlarni majburan turmushga berishgan. Ammo Islom dini buni qoralaydi va nikoh ayol roziligi majburiy bo‘lgan “shartnoma” sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, ayol erining zimmasida ta‘minot va himoya bilan bog‘liq majburiyatlarga ega. Islom huquqiga ko‘ra nikohning haqiqiyliqi quyidagi 4 shartning uyg‘unligi bilan belgilanadi:

1. Bevosita monelik qiladigan holatlarning yo‘qligi;
2. Muayyan shaxslarning roziligi;
3. Mahrning belgilanishi;

¹ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN HADISI SHARIFLAR. Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies, 2(12), 579-584. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347>

4. Rasmiy qoidalarga rioya etilishi².

Oila (urug'-aymog') g'ururi va nomusini sharmanda qilgan ayollarni o'ldirish or-nomus qotilligi deb ataladi. Bunday qotilliklar ba'zi musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lsada, boshqa mamlakatlarda ham sodir bo'ladi. Ayrim musulmon ulamolari bu qotilliklar Islomga hech qanday aloqasi bo'lmagan an'ananing bir qismi, xolos, deb ta'kidlaydilar. Eron va kurd ayollarining huquqlarini himoya qilish tashkiloti hisobot e'lon qildi. Bunga ko'ra 2010-yilda 2829 yosh ingliz musulmon ayollari kaltaklangan, kislota bilan azoblangan, o'g'irlangan yoki o'ldirilgan. Bu ayollarning kelib chiqishi asosan, Pokiston, Hindiston va Bangladeshdan³.

Shu o'rinda Rasululloh (s.a.v.) hadislaridan misollar keltirib o'tsak:

“Ey insonlar, ayollar haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz! Ayollar sizlarga Allohning omonatidir, ularni Alloh nomi bilan oldingiz. Ular amri ilohiy ila sizlarga halol bo'ldi. Sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bo'lgani kabi, xotinlaringizning ham sizlarda haqlari bor”⁴.

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki ayollarga nisbatan zulm qilish qoralanadi. Ammo, bugungi kunda ko'pchilik bu masalaga yuzaki qaragan holda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar ko'payib borayotgani barchamizga ma'lum. Bularning bari huquqiy ong va huquqiy madaniyatning darajasi past ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, insoniyat doimo har tomonlama mukammallikka intilib kelgan. Lekin, afsuski, jamiyat bir maromda rivojlanmaydi. Ba'zan taraqqiyot turli urush va zo'ravonliklar bilan o'rin almashib keladi. Umuman olganda, zo'ravonlik ham aynan mana shunday buzilish holatlaridan biri sanaladi. Zo'ravonliksiz jamiyat mukammal jamiyat bo'lardi. Shu sababli zo'ravonlik hodisasini ijtimoiy va individual hayotning ajralmas elementi sifatida ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.A.Guseinov va R.A.Apresyan kabi bir qator olimlarning fikricha: “Zo'ravonlikning mohiyati odamlar o'rtasidagi iroda erkinligini yo'q qilish jarayoni bo'lib, bir tomonning kuch ishlatish va tashqi majburlash yo'li bilan o'z irodasini boshqalarga yuklashidir”. Zo'ravonlik va tazyiq tushunchasini har tomonlama o'rganish va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday munosabatlar doimiy ravishda davlatlar, millatlar, alohida guruhlar, shaxslar va oila a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi kuzatiladi.

² <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/islom-huquqida-oila-nikoh-va-meros-masalalari>

³ ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN HADISI SHARIFLAR. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies*, 2(12), 579-584. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347>

⁴ <https://m.kun.uz/news/2018/11/27/islom-aelni-ezozlagan-din-din-islari-bujica-kumita-aellarni-ezozlasga-cakirmokda>

Ayollardagi jismoniy zaiflik qoralanmaydi. Chunki ular bunga aybdor emas. Qalblarining nozikligi, his-tuyg‘ularining kuchligi esa, mo‘tadil bo‘lsa, maqtovga loyiqdir. Bu narsa ulardagi latofat va go‘zallikni ziyoda qiladi. Payg‘ambarimiz alayhissalom ayollardagi mana shu zaiflikni doim e‘tiborga olar va ularni himoya qilishga haris edilar. Hatto vidolashuv hajlaridagi mashhur xutbada ham, ayollarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishni qayta-qayta vasiyat qildilar. U Zot alayhissalom ayollariga qo‘l ko‘tarmadilar, ularga yaxshilik qilishda ummatga ibrat bo‘ldilar va shu ishga targ‘ib qildilar: *“Yaxshilaringiz – oila ahliga yaxshi bo‘lganidir. Men – ahli ayoliga eng yaxshingizman”*.

Endi esa hozirgi davrda ayollar huquqlariga ham biroz to‘xtalib o‘tsak. Bugungi zamonaviy davrga kelib ayollarga bo‘lgan e‘tibor oshdi, ularga yangidan yangi imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda va ularning huquqlari ham kafolanmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 919-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 285-son qarorini e‘tirof etish mumkin⁵. Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 25-maqsadida Gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish to‘g‘risida ko‘plab qarorlar, qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonun va qarorlarning barida ayollar huquqlari mustahkamlangan. Bular faqat O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan hujjatlar bo‘lsa xalqaro miqyosda ham shu kabi ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosaasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish nazarda tutilgan. Ushbu qabul qilingan qonun va qarorlar albatta mamlakatimizdagi xotin va qizlarning huquq va majburiyatlarini kafolatlab, shu bilan birgalikda ko‘pgina huquqbuzarliklarni oldini olishda ham samarali xizmat qiladi.

⁵ <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>

Milliy darajada ayollar maqomini oshirish va ularning iqtisodiy huquqlarini ham mustahkamlash bo'yicha dasturlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Gender muammolarini hal qilishda respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat va ilmiy tashkilotlari faoliyatining faollashishi hamda bir-biri bilan uyg'unlikda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Mamlakat ayollar huquqlarini qay darajada ta'minlayotganini baholash turli jihatlariga, jumladan, qonunlar, siyosatlar, ijtimoiy- madaniy omillar va haqiqiy turmush sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, ayrim davlatlar tenglik va ayollar huquqlarini ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlari bilan taniqlidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday mamlakatlarda ham muammolar mavjud bo'lishi mumkin va hech bir davlat bu sohada to'liq mukammallikka erishmagan. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligi jamoada, guruhda, norasmiy birlashmada muloqot qilish va harakat qilish, boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lish, tengdoshlari, oilaning katta va kichik a'zolari, mahallalar oldidagi muayayn majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarishdari, o'zini va o'zgarini rivojlantirish va faollashtirishga qaratilgan ongli hamda tizimli faoliyatidir. Bugungi kunda xotin-qizlarimizni turmushini o'tgan kunlarning o'tmish sahifalariga yozilgan va bitilgan kechmishlariga aslo solishtirib bo'lmaydi. Momolarimizni cheklangan huquqlari, siyosiy tugul oddiy o'rta maktab ta'limini olish borasidagi cheklovlar va ularni yengish uchun qanchalik darajadagi chekkan mashaqqatlari ayollarning hozirgi huquq va manfaatlariga yetishishi yo'lida debocha bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. Nafaqat bizni mamlakatimizda balki, butun dunyoda ayollar huquqlarini himoya qilish har doim dolzarb bo'lib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, islom dinida ayollar huquqlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu huquqlar inson qadr-qimmatini himoya qilish, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Islom dini nozil bo'lgan davrda mavjud bo'lgan ayrim adolatsiz urf-odatlariga qarshi chiqib, ayollarning maqomini sezilarli darajada yuksaltirdi. Jumladan, ayollarga meros olish, mulkka egalik qilish, nikohda o'z roziligini bildirish, ta'lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kabi muhim huquqlar berildi. Shuningdek, onalik va ayollik maqomi ulug'lanib, ularga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatish diniy va axloqiy burch sifatida belgilandi. Natijada, ayollar jamiyatda munosib o'rin egallab, ijtimoiy hayotning muhim subyekti sifatida e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR

1. <http://old.muslim.uz/index.php/ayollar-sahifasi/item/2440-ajollar-islom-nigohida>. J. Hamroqulov "Islom ayollar nigohida".

2. <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>
3. Islom dinida ayollarni ehtirom qilish borasida kelgan hadisi shariflar. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies*, 2(12), 579-584. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347>
4. <https://m.kun.uz/news/2018/11/27/islom-aelni-ezozlagan-din-din-islari-bujica-kumita-aellarni-ezozlasga-cakirmokda>
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/islom-huquqida-oila-nikoh-va-meros-masalalari>